


**KO'KIYEV BOBURNIRZO  
BAHODIR O'G'LI**

**CHIZMACHILIK O'QITISH  
METODIKASI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

## CHIZMACHILIK O'QITISH METODIKASI

*(o'quv qo'llanma)*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

CHIRCHIQ - 2023


- 74759/58 -

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

## TECHNIQUE OF TEACHING DRAWING

*(Tutorial)*




CHIRCHIK - 2023

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И  
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЧИРЧИКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ

## МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ЧЕРЧЕНИЮ

*(Учебное пособие)*



ЧИРЧИК-2023

UO'K 73/76;741/744  
KBK 30.11  
K-97

**B.B. Ko'kiyev/ Chizmachilik o'qitish metodikasi / O'quv qo'llanma.**  
Chirchiq.: «City of book», 2023. – 220 bet

#### ANNOTATSIYA

“Chizmachilik o'qitish metodikasi” nomli o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassalarining 60111200 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi chizmachilik fani o'quv dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, ushbu qo'llanmadan o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qiziqayotgan har bir mutaxassis foydalanishi mumkin.

Qo'llanmada chizmalarni chizish va ularni turli usullar bilan o'qish hamda ularga didaktik yondashish, o'quvchilarning chizmachilikdan olayotgan bilim, ko'nikmalarini tekshirish, dars jarayonida ularning faolligini oshirish maqsadida o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish metodlari yoritilgan hamda har xil didaktik materiallarni tayyorlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Bundan tashqari o'quv qo'llanmadan Chizmachilik fani o'qitiladigan barcha oliy ta'lim muassasalari talabalari, shuningdek, umumta'lim maktabi o'quvchi hamda o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

#### Аннотация

Учебное пособие “Методика обучения черчению” подготовлено на основе учебной программы по черчению высших учебных заведений 60111200 - Образовательная программа бакалавриата “Изобразительное искусство и инженерная графика”, данное пособие может быть использовано каждым специалистом, интересующимся современными педагогическими технологиями в обучении.

В пособии описаны способы рисования рисунков и чтения их разными способами, а также дидактический подход к ним, методы использования современных педагогических технологий с целью проверки знаний и умений учащихся по рисованию, повышения их активности во время занятия, различные дидактические материалы, даны рекомендации по подготовке.

Кроме того, учебным пособием могут пользоваться студенты всех высших учебных заведений, в которых преподается черчение, а также учащиеся и учителя общеобразовательных школ.

#### Annotation

The textbook “Methods of teaching drawing” was prepared on the basis of the curriculum for drawing of higher educational institutions 60111200 - Bachelor's educational program “Fine Arts and Engineering Graphics”, this manual can be used by every specialist who is interested in modern pedagogical technologies in teaching.

The manual describes how to draw drawings and read them in different ways, as well as a didactic approach to them, methods of using modern pedagogical technologies to test students' knowledge and skills in drawing, increase their activity during the lesson, various didactic materials, give recommendations for preparing.

In addition, the textbook can be used by students of all higher educational institutions where drawing is taught, as well as students and teachers of secondary schools.

#### Muallif:

B.B.Ko'kiyev - Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasini mudiri.

#### Taqrizchilar:

K.G.Malikov - Nizomiy nomidagi TDPU “Muhandislik grafikasi va kompyuter grafikasi” kafedrasini p.f.f.d.,

D.O.Ximmataliyev - Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Pedagogika” fakulteti Pedagogika kafedrasini p.f.d. professori.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17-iyuldagi 314-sonli buyrug'iga asosan nashr etilgan

ISBN 978-9910-9950-6-4

© B.B.Ko'kiyev, 2023  
© «City of book», 2023

## KIRISH

Oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassisslarga o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda mavjud barcha resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, davlat standartlari, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish pedagogik axborot texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Mamlakatimiz yoshlariga nisbatan ishonch bildirib, ular kelajagimiz ekanligini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham o'z nutqlarida quyidagicha bildirib o'tgan: *"Albatta, faqat zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan yashaydigan siz, aziz yoshlarimiz maydonga dadil chiqib, bugungi kunda hayotning o'zi oldimizga qo'yayotgan vazifalarni hal etishga qodirsiz"*<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3152 sonli "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga asosan maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining tarbiyachilar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ayniqsa aniq fanlar va chet tillari bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, tumanlar va qishloq joylaridagi ta'lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash hamda xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini joylarda tashkil etishni yanada takomillashtirish va ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida tashkil etildi.

"2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da xalqimiz hayot darajasini yuksaltirishning aniq mexanizmlari belgilab berilganligi to'g'risida fikrlarini bildirib,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi.

ushbu strategiyaning nafaqat xalqimiz, balki dunyo jamoatchiligi e'tiborini o'ziga jalb etgan muhim hujjatga aylanganligini alohida ta'kidlab, o'tamiz"<sup>2</sup>.

Harakatlar strategiyasida ta'lim sifatini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalari alohida o'rin egallaydi. Harakatlar strategiyasidan ko'zlangan asosiy maqsad - O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasiga yanada kengroq jalb qilishdir.

Ishlab chiqarish sohalarining xarakteriga mos keladigan chizmalarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularga oid so'nggi ma'lumotlar va qonun qoidalarni, belgi va shartliliklarni bilish, to'ldirish hamda o'z bilimlarini oshirishda chizmachilikni mukammal o'zlashtirishlari kerak. Bunda chizmachilikning bo'limlarida o'qitiladigan, jumladan, chizmalarni chizishda qo'llaniladigan asbob-moslamalar, geometrik yasashlar, lekalo egri chiziqdri, ko'rinish, qirqim va kesimlar, aksonometrik proyeksiyalar, shartliliklar va soddalashtirishlar, ajraluvchi va ajralmas birikmalar, birlashtirish moslamalari (bolt, shpilka, vint, kavsharlash, payvandlash va boshqalar), detal eskizi, ishchi chizma, cheklanish va o'tqazishlar, sirt g'adir-budurliklarining chizmalarda belgilanishi, turli uzatmalarni tasvirlash hamda yig'ish chizmalarini tuzish va o'qishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Mashina va mexanizmlarning ishlash prinsiplarini ifodalovchi sxematik chizmalarni ham o'z ichiga oladi<sup>3</sup>.

Chizmachilik fanini o'qitishning zamonaviy metodlari va pedagogik texnologiyalari, o'qitish vositalari, darslarni loyihalash va modellashtirishning nazariy asoslari, dars va darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish, chizmachilik fanini o'qitish metodikasi fani umumta'lim maktablari, professional ta'lim muassasalarida

<sup>2</sup> 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi IV b'lim.

<sup>3</sup> New.tdpu.uz